

MODALLIK - SHARQ VA G'ARB OLIMLARI NAZARIDA

Haydarov Anvar Askarovich

Filologiya fanlari nomzodi, professor

Buxoro Davlat Universiteti

Email: a.a.haydarov@buxdu.uz

Sattorova Shahlo Shavkat qizi

Buxoro Davlat Universiteti II bosqich magistrant

Email: s.s.sattorova@buxdu.uz

Abstract. *This article aims to reveal the development of the category of modality and the views of world scientists about the category of modality. In addition, the differences and grounds of the opinions are mentioned.*

Key words. *Modal word, objective entity, communication, subjective entity, modal construction.*

Абстрактный. *В данной статье ставится задача раскрыть развитие категории модальности и взгляды мировых ученых на категорию модальности. Кроме того, указываются различия и основания мнений.*

Ключевые слова. *Модальное слово, предметная сущность, коммуникация, субъективная сущность, модальная конструкция.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola modallik kategoriyasining rivojlanishi va dunyo olimlarining modallik kategoriyasi haqidagi qarashlarini ochib berishga qaratilgan. Bundan tashqari fikrlarning bir biridan farqi va asoslari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Modal so'z, obyektiv borliq, kommunikatsiya, subyektiv borliq, modal konstruktsiya.*

Modallik gapning asosiy birligi, gap semantikasining eng muhim belgisi hisoblanadi. Modallik deb yozadi Azim Hojiyev, (lotincha modus-mayl) so'zlovchining ifodalanayotgan fikrga munosabtni bildiruvchi grammatik-semantik kategoriya. Fikr mazmuni real yoki noreal va shu kabi tarzda tasavvur etilishi mumkin. Modallik so'z, morfema, yuklama va intonatsiya orqali ifodalanishi mumkin. Masalan: yoza olmoq (ol-yordamida yasalgan qodirlik farmoni), keladi, albatta (albatta modal so'zi qat'iy ishonchni bildiradi).¹

“Modallik kategoriyasi deb, qator funksional-semantik modallik kategoriyalarining (tasdiq-inkor, real-noreal, so'roq, undov, payt, sabab, maqsad, qiyos, shart, niyat, buyruq, natija, to'siqsiz, o'rin, inkor, tasdiq, mavjudlik, holat, maslahat, iltimos, talab, mumkinlik va hokazo) shakllanib, rivojlanib, turli xil ma'no nozikliklariga qo'shib, uyg'unlashib keng funksional-semantik maydonni hosil qilish jarayonida so'zlovchining obyektiv borliqqa munosabatini anglatib, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi kommunikativ muloqotning amalga oshishida ifodalanayotgan semantik ma'nolar majmuiga aytiladi”.²

Sh.Balli modallik kategoriyasiga shunday ta'rif beradi: “Modallik – gapning qalbi, yuragidir”. U modal ma'nolar tarkibiga “hukmning turli nozikliklari”, “sezgi va istak”larni kiritadi: “Modal fe'llar,

¹ A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T. O'qituvchi, 1985. -B.55.

² J.A.Yoqubov. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. –T.: Fan, 2005. -B.224

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

mayllar, intonatsiya, savol va buyruq shakllari: modal harakat (ishora), undov soʻzlar, atash va koʻp sonli usullar bilan ifodalanadi”.³ M.K.Xellidey fikricha, “Modallik – muloqotning muhim funksionlari xususiyati, shaxs orasidagi funktsiya, muloqotda qatnashayotgan soʻzlovchining ifoda shakli hisoblanadi”.⁴

“Obyektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkoniyatsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi) ni anglatadi hamda grammatik va leksik vositalar (mayl, modal soʻz, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa soʻzlovchining aytilayotgan fikriga (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho) munosabatini koʻrsatadi va soʻz tartibi, intonatsiya, leksik takror, modal soʻz, yuklama, undov, kirish soʻz, soʻz birikmasi va gaplar bilan ifodalanadi”.⁵

V.G.Gak modallik turiga soʻzlovchi va xabar beruvchi munosabatidagi umumlashganlikni asoslaydi. V.Gakning fikricha, “modallik 3 bosqichga boʻlinadi: 1) xabar berish xususiyatiga koʻra – deklorativ (I say that Peter will come) va performativ (I command Peter to come) modallik; 2) voqelikni bilish xususiyatiga koʻra – ishonchlilik (I know) va ehtimollik (I guess); 3) munosabat xususiyatiga koʻra – istak (I want him to come) va norozilik subyekt hissiyotining ifodalanishi bilan bogʻliq”.

Tilshunoslikda — modallik fikrning voqelikka boʻlgan munosabatining turli xil koʻrinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarning subyektiv tarzda tasniflanishining turlicha

koʻrinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya deb taʼrif berilsa, mantiq ilmida esa modallik hukmning asosiy muhim xususiyati boʻlib, unda predmetning u yoki bu belgisi ifodalanadi. Modallik hukmda aytilgan voqelikning mazmuniga koʻra, unga beriladigan semantik tavsif: hukm, zaruriy, ehtimoliy, tasodifiy, noehtimoliy kabi tushunchalarning predikat bilan subyekt orasidagi mantiqiy bogʻlanish tushuniladi. Modallik mantiqda chin, xato, tasdiq, inkor, shart maʼnolarini anglatib, ular maxsus modal operatorlar orqali ifodalanadi, Anʼanaviy mantiqda zaruriy (apodiktik), ehtimoliy (problematik) va voqeiy (assertorik) hukmlar bir biridan farqlanadi.

Aristotel tasdiq, inkor, mumkin (ehtimol), zarur kabi modallik kategoriyalari turini aniqlab, ushbu modallik kategoriyalarining rivojlanishiga asos soldi. Sharqda esa Abu Nasr Forobiy mantiq ilmi va uning kategoriyalarini oʻrganib, modallik kategoriyasini chuqur tahlil qildi. Oʻrta asrlarda esa mantiqiy modallik rivojlanishida modal konstruksiyalari muhim rol oʻynagan. Uygʻonish davrida mantiqiy grammatika vujudga keldi. Leybnits esa mustaqil matematik mantiqqa asos soldi. Uning mantiq tamoyillari va modallik kategoriyalari, matematik mantiq toʻgʻrisidagi ilmiy fikrlari hozirgi zamon mantiq ilmida modallik kategoriyasi bilan bogʻliq muammolarni tadqiq etishda muhim asos boʻlib xizmat qilmoqda. Hozirgi davrga kelib modallik kognitiv lingvistikaning eng dolzarb va keng qamrovli tushunchalaridan biriga aylandi.

Hozirgi zamon tilshunosligida modallik tushunchasi nihoyatda keng qoʻllanib, semantik kategoriya sifatida oʻzining kategoriya shakliga va turli maʼnolarning uygʻunlashib ifodalanish xususiyatiga koʻra juda xilma-xildir. Hatto modallik kategoriyasining mazmuni va uning hajmi haqida ham yagona toʻxtamga kelingani yoʻq. Bu lingvistik modallik bilan mantiqiy modallik toʻlalgicha bir biriga mos kelmasligi ifodalanadi. Modallikning bu xususiyatidan kelib chiqib V.Z.Panfilov mantiqiy modallikni lingvistik

³ Charles Bally. Le langage et la vie. -P., 1926. -P.206.

⁴ M.K.Halliday. System and function in language: Selected papers. Ed.ByG. R.KressLondon. OxfordUniv. Press.1976. -P.197.

⁵ I.Mirzayev. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6 t. – T., 2000. -B.43

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

modallik bilan bog'lab o'rganishni uqtiradi. Modallik zamirida gapning subyekt bilan bog'liq turli ma'nolari tushuniladi. Modallik tushunchasi tilshunoslikdan mantiq faniga kirgan bo'lib, bu kategoriya mantiq ilmida har xil shartli belgilar va semantik operatorlar (ehtimol, zarur, shart, mumkin) bilan ifodalanishi tahlil qilinadi.⁶

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T. O'qituvchi, 1985. -B.55.
2. J.A.Yoqubov. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. –T.: Fan, 2005. -B.224
3. Charles Bally. Le langage et va vie. -P., 1926. -P.206.
4. M.K.Halliday. System and function in language: Selected papers. Ed.ByG. R.KressLondon. OxfordUniv. Press.1976. -P.197.
5. I.Mirzayev. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6 t. – T., 2000. -B.43
6. Kobilova Aziza Bakhridinovna 2022. Semantic and Lingua-Cultural Features of English and Uzbek Medical Periphrases. International Journal on Integrated Education. 5, 6 (Jun. 2022), 162-167. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v5i6.3144>
7. Kodirova Kholida Khayridin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. Miasto Przyszłości, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
8. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. Miasto Przyszłości, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
9. Zarnigor, D. (2021). Phytonymic comparison as a means to create image in poetry. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 693-698. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=9&article=118>.
10. Okil Safarovich Aliev, & Zubaydullo Izomovich Rasulov. (2021). CONCEPTUAL PROBLEMS OF SYNCHRONIC TRANSLATION. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 123–125. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1165>
11. Rasulov, Z. (2022). INFORMATION FORMING TOOLS (FACTORS) IN THE STRUCTURE OF DISCOURSE. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 15(15). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6981ю
12. Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf
13. Джумаева, Н. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ АНТРОПОЦЕНТРИЗМА В ОБРАЗЕ МАГИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ В СКАЗКАХ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 18(18). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7325
14. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 5, 62–67. Retrieved from <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>

⁶ I.Mirzayev. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 6 t. – T., 2000. -B.43